FE'LLARGA XOS SEMANTIK KO'RSATKICHLAR TADQIQI

Saloxiddinov Manuchehr Sharofiddinovich
Samarqand davlat chet tillar instituti

Til hodisalariga nisbatan funksional-semantik yondashuvda leksik va morfologik sathlarning munosabatini o'zaro bog'liq holda o'rganiladi. Aspektologik hodisalarning funksional-semantik maydonda tahlil etilishida predikat vazifasidagi fe'lning aksional (chegaralanganlik/chegaralanmaganlik) semantikasiga asoslanish barobarida, kontekstdagi boshqa til birliklarining predikatga ta'siri ham e'tiborga olinadi.

Chegaralanganlik grammatik sathda esa fe'lning leksik ma'nosi, so'z yasalish strukturasiga bog'liq holda biron bir zamondagi harakatning (tugallanganlik, natijaviylik, bir karralik, boshlanganlik) tushuniladi" [Koneko, Petruxina, 2004: 20-21]. S.G.Tatevosov esa fe'lning chegaralanganlik/chegaralanmaganlik xususiyatlarini fe'l semantikasida emas, kontekstdagi to'ldiruvchi yoki hol bilan bog'liqligini ta'kidlab, shunday fikr yuritadi: "Tillarda na chegaralangan na chegaralanmagan fe'llar mavjud va bu holatda chegaralanganlik faqatgina fe'l sathida sathida yuzaga kelib, odatda patsiens, ya'ni asos orqali aniqlanadi. Masalan: to eat. U sanalmaydigan otli patsiens bilan birikib kelganda chegaralanmagan: He ate soup for ten minutes/in ten minutes. Sanaladigan argumentning birlik shakli bilan bog'langanda chegaralangan xususiyatiga ega bo'ladi: He ate an apple in ten minutes / for ten minutes. (S.Tatevosov 2005: 203)". S.G.Tatevosov ikkilama yo'nalish tarafdori sifatida fe'lning aksional xususiyatlarida ham chegaralangan, ham chegaralanmaganni guruhlash emas, balkim umuman chegaralanganlik/chegaralanmaganlikni predikat bilan bog'laydi: "Chegaralanmagan predikatlarning xususiyati ularning additivligidadir. Bu xususiyat ham jarayon ham holatga xosdir. Bundan tashqari, holat ham jarayon ham bo'linishga ega, birinchidan, kuchli ma'no, ikkinchidan, holatning minimal kvantini aniqlash ma'nosida yuzaga keladi. Bu munosabatda chegaralanmagan fe'l predikatlari ikki xil, otli predikatga, noaniq ko'plik va sanalmaydigan sinflarga mos tushadi. Chegaralanmagan predikatgaa chegaralangan predikat mos qo'yiladi. Ma'lumki, ikkinchisi birinchisidan farq qiladi. Chegaralangan fe'l predikatlari chegaralanmagan predikatga qarama-qarshi xususiyatga ega bo'lib, o'zining additive va bo'linmasligi bilan farq qiladi." [Tatevosov, 2005: 124]

Tilshunoslikda eng birinchi bo'lib F.A.Ganiyev tatar tilidagi tarkibli (сложновербал) fe'l tuzilmalari tarkibiga harakat oqimi yoki harakat tarzi kategoriyasini kiritadi. Shuningdek olim o'z monografiyasida chegaralanganlik, chegaralanmaganlik tushunchalarini keng qo'llaydi. U ushbu hodisalarni tatar tillarida leksik-semantik hodisa deb qaraydi. F.A.Ganiyev analitik shakllarni tahlil qilar ekan quyidagi fikrni bildiradi: "Tarkibli fe'lning chegaralanganlik/chegaranlamaganligi ko'makchi fe'lga bog'liq, agarda ko'makchi fe'l chegaralangan bo'lsa, tarkiblisi ham chegaralangan, agarda ko'makchi fe'l chegaralanmagan bo'lsa tarkibli fe'l ham chegaralanmagan" [Ganiyev, 1963: 377-382]. Zamonaviy tilshunoslikda aspektologiya sohasida fe'llarni chegaralanganlik nuqtai nazaridan tadqiq etish va germanshunoslar olib brogan tadqiqotlarning o'rni alohida, albatta. Turkologiyada ham tadqiqotlarning markazida ravishdosh shaklidagi yetakchi fe'l va ko'makchi fe'ldan iborat qo'shilmalar anglatadigan ma'nolarni aspekt bilan qiyoslab o'rganish keng tus oldi. Shu asnoda A.A.Xolodovichning fe'llarni chegaralanganlik/chegaralanmaganlik guruhlarga ajratish universal, tillararo bo'lishi kerak degan fikrini o'rinli deb o'ylaymiz. [Xolodovich, 1979: 138-139]. Turkiy tillarda to'la sintetik-grammatik shakllangan vid kategoriyasi yo'q ekanligi e'tirof etilgan, unga xos leksik-semantik va grammatik ma'nolarni analitik fe'l shakllari ifodalashiga alohida e'tibor qaratish istiqbolli bo'lib chiqdi.

O‘zbek tilida fe’lning harakat tarzi shunday aspektual ahamiyatga ega bo‘lgan lingvistik hodisadir. Fe’lning harakat tarzi shakllari sof aspekt, ya’ni grammatik (morfologik) vid kategoriyasiga mansub bo‘la olmasligi yuqoridagi mulohazalardan so‘ng o‘z-o‘zidan ayon bo‘ladi. Biroq funksional-semantik nuqtai nazardan qaraganda, analitik shakl vositasida ifodalanadigan harakat tarzi aspekt doirasiga kiritiladi va sof xususiy aspekt bilan aksionallik (aksionsart) o‘zaro farqlanadi. V.G.Guzev fikricha, turkey tillarda ushbu hodisa o’ziga xos xususiyatga ega. U o‘zining “fe’l” nomli monografiyasida aspektual ma’nolar avvalambor vid (xususiy aspekt-собственный аспект) va so‘ngra aksional ma’nolarga ajratilishini maqsadg muvofiq deb hisoblaydi. [Guzev, 1990: 132].

O‘zbek tili aspektual ma’nolari tahlilida qaysi yondashuvga amal qilish samara berish mumkinligi masalasi muhim. A.Hojiyev o’zbek tilidagi ko’makchi fe’llarni ifodalash ma’nosiga ko’ra 9 ta (muallif faza atamasini qo‘llaydi) turini keltiradi. [A.Hojiyev, 1973: 188-195].

A.Hojiyev tomonidan o‘zbek tilida vid (tus) kategoriyasini mavjudligi shubha ostiga olingandan so‘ng aspektual ma’nolar tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqodlar ko’lami susayganligi kuzatiladi. Ammo, D.Nasilov o‘zbek tilida ko‘makchi fe’lli analitik shakllar aynan aspektual ma’no ifodalashi borasida qator maqola va monografiyalarni chop ettirdi. Olim, o‘zbek tilida, shuningdek boshqa turkey tillar fe’l sistemasidagi kabi, analitik shakllar aspektullikning leksik qatlami hisoblangan harakat tarzini ifodalashi borasidagi tahlillarni amalga oshiradi. Shuningdek, D.Nasilov fe’lning chegaralanganlik va chegaralanmaganlik aksional (Nasilov, 1985) xususiyatlarini belgilashda ham analitik shakllarga murojaat qiladi. Fikrimizcha, aksional xususiyatlarni belgilash ma’lum birikmalar emas balki bir leksema doirasida olib borilishi maqsadga muvofiq kelishi mumkin.

O‘zbek tilida aspektni grammatik kategoriya sifatida mavjudligi borasida birinchi bor A.G’ulomov gapirib o‘tadi. Olim bevosita rus tilidagi vid (tus) kategoriyasiga o‘xshash hodisalarni topishga harakat qiladi [G’ulomov 1956]. Keyinchalik akademik A.Hojiyev o‘zbek tilida vid kategoriyasi mavjudligini qat’iyan rad etadi. Olim o‘zbek tilidagi yetakchi va ko‘makchi fe’l birikmalari o‘ziga xos alohida sathni tashkil etishini ta’kidlaydi [Hojiyev 1975]. U o‘zbek tilidagi analitik shakllarni aspektual semntikasiga e’tibor qaratmaydi. Turkiy tillarda fe’l semantikasi tadqiqi bilan shug’ullangan D.Nasilov o‘zbek tilidagi yetakchi va ko‘makchi fe’l birikmalari aspektual semantika ifodalashini ta’kidlaydi. Muallif o‘zbek tilidagi analitik shakllar yordamida ifodalanadigan aspektual ma’nolarni leksik-grammatik kategoriyaga tegishli deb qaraydi [Nasilov 1975; 1980]. Aspektuallik borasida qator ishlar olib brogan D.X.Rizayev va G’.Q.Mirsanovlar ham aspektuallikning o‘zbek tilidagi ko‘rinishi nimada ekanligi, ya’ni uning grammatik ko‘rsatgichlari borasida aniq mulohaza bildirishmagan. Ushbu mualliflar asosiy e’tiborni fe’lning chegaralanganlik / chegaralanmaganlik xususiyatlari asosida hosil bo‘ladigan ma’nolarga qaratishadi [Rizayev 1999, Mirsanov 2021]. O.Shukurov va B.Mengliyevalar o‘zbek tilidagi yetakchi va ko‘makchi fe’lli birikmalarni harakat tarzi sifatida baholaydilar. Ular o‘zbek tilidagi ushbu birikmalar harakat tarzining qanday (leksik, grammatik, sintaktik) kategoriyaga tegishliligi borasida fikr yuritishmaydi [Shukurov 2005, Mengliyeva 2020]. Ko’rinadiki, o‘zbek tilida aspekt ifodalanishini ta’minlovchi asosiy kategoriyalarni belgilash, aspektni qaysi kategoriyaga tegishliligini aniqlashtirish dolzarb vazifa bo‘lib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Ганиев Ф.А. Видовая характеристика глаголов татарского языка: Проблема глагольного вида в татарском языке. – Казань, 1963. –С. 377-382.
2. Гузев В.Г. Очерки по теории тюркского словоизменения: Глагол. – Л:Наука, 1990. –165 с.
3. Мирсанов Ғ.Қ. Инглиз ва ўзбек тилларида юриш-ҳаракат феълларининг акционал ва аспектуал хусусиятлари. Филол.фан.н....дисс. автореф. –Т.:, 2009. – 21 б.

4. Петрухина Е.В. Аспектуальные категории глагола в русском языке. М.: Изд-во МГУ, 2000. –256 с.
5. Ризаев Б.Х. Проблема аспектной семантики временных форм немецкого глагола. Аспектная семантика претерита. –Ташкент: “Фан”. 1999. –121 с.
6. Ҳожиев А. Феъл. –Тошкент: Фан, 1975. –192 б